INKLYUZIV MAKTABGACHA TA'LIMDA SAN'AT MARKAZLARI ASOSIDA ESTETIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

Saidov Sohib Sharipovich
sohib.1992saidov@gmail.com

Annotatsiya. *Mazkur maqolada inklyuziv maktabgacha ta'lim sharoitida san'at markazlari asosida tarbiyalanuvchilarning estetik madaniyatini shakllantirish metodikasini takomillashtirish masalasi tadqiq etilgan. Unda estetik madaniyatning bolaning hissiy olami, ijodiy tafakkuri, estetik didi, tasavvuri va ijtimoiy moslashuvidagi pedagogik ahamiyati ochib berilgan. San'at markazlarining inklyuziv ta'lim muhitidagi rivojlantiruvchi imkoniyatlari tahlil qilinib, tasviriy san'at, musiqa, dramatizatsiya, aplikatsiya, loy bilan ishlash va konstruktorlik faoliyatlarini integratsiyalash orqali bolalarning individual va ijodiy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish imkoniyatlari asoslantirilgan. Tadqiqotda individuallashtirish, differensial yondashuv, faoliyatga yo'naltirilgan ta'lim, hamkorlik pedagogikasi, multisensor yondashuv va refleksiv baholash asosiy pedagogik tamoyillar sifatida belgilangan. Shuningdek, estetik madaniyatni shakllantirishning diagnostik, moslashtirish, integrativ faoliyat va refleksiv baholash bosqichlaridan iborat takomillashtirilgan metodik modeli hamda uni amalga oshirishda art-pedagogika, musiqiy terapiya, ertak terapiyasi, dramatizatsiya, loyiha va kooperativ ta'lim metodlaridan foydalanish imkoniyatlari yoritilgan. Taklif etilgan metodik yondashuv inklyuziv maktabgacha ta'limda estetik tarbiya samaradorligini oshirish, bolalarning ijodiy faolligi va ijtimoiy integratsiyasini ta'minlashga xizmat qiladi.*

Tayanch so'zlar: *inklyuziv ta'lim, maktabgacha ta'lim, estetik madaniyat, san'at markazi, estetik tarbiya, rivojlantiruvchi ta'lim muhiti, alohida ta'lim ehtiyojlari, individual yondashuv, differensial yondashuv, ijodiy faoliyat, art-pedagogika, musiqiy terapiya, ijtimoiy integratsiya, pedagogik metodika, estetik did.*

Аннотация. *В данной статье рассматривается вопрос совершенствования методики формирования эстетической культуры учащихся на основе художественных центров в инклюзивном дошкольном образовании. Раскрывается педагогическое значение эстетической культуры в эмоциональном мире, творческом мышлении, эстетическом вкусе, воображении и социальной адаптации ребенка. Анализируется развивающий потенциал художественных центров в инклюзивной образовательной среде и обосновываются возможности реализации индивидуального и творческого потенциала детей посредством интеграции изобразительного искусства, музыки, драматизации, аппликации, лепки из глины и конструирования. В исследовании определены основные педагогические принципы:*

индивидуализация, дифференцированный подход, деятельностно-ориентированное образование, кооперативная педагогика, мультисенсорный подход и рефлексивная оценка. Также представлена усовершенствованная методическая модель формирования эстетической культуры, включающая этапы диагностики, адаптации, интегративной деятельности и рефлексивной оценки, а также возможности использования в ее реализации методов арт-педагогики, музыкотерапии, сказочной терапии, драматизации, проектного и кооперативного образования. Предложенный методологический подход способствует повышению эффективности эстетического воспитания в инклюзивном дошкольном образовании, обеспечивает творческую активность и социальную интеграцию детей.

Ключевые слова: *инклюзивное образование, дошкольное образование, эстетическая культура, художественный центр, эстетическое воспитание, развивающая образовательная среда, особые образовательные потребности, индивидуальный подход, дифференцированный подход, творческая деятельность, художественная педагогика, музыкотерапия, социальная интеграция, педагогическая методология, эстетический вкус.*

Abstract. *This article studies the issue of improving the methodology for forming aesthetic culture of pupils on the basis of art centers in inclusive preschool education. It reveals the pedagogical significance of aesthetic culture in the emotional world, creative thinking, aesthetic taste, imagination and social adaptation of the child. The developmental potential of art centers in an inclusive educational environment is analyzed, and the possibilities of realizing the individual and creative potential of children through the integration of fine arts, music, dramatization, applique, clay work and construction activities are substantiated. The study identifies individualization, a differentiated approach, activity-oriented education, cooperative pedagogy, a multisensory approach and reflective assessment as the main pedagogical principles. It also highlights an improved methodological model of the formation of aesthetic culture consisting of diagnostic, adaptation, integrative activity and reflective assessment stages, and the possibilities of using art pedagogy, music therapy, fairy tale therapy, dramatization, project and cooperative education methods in its implementation. The proposed methodological approach serves to increase the effectiveness of aesthetic education in inclusive preschool education, ensure the creative activity and social integration of children.*

Keywords: *inclusive education, preschool education, aesthetic culture, art center, aesthetic education, developmental educational environment, special educational needs, individual approach, differential approach, creative activity, art pedagogy, music therapy, social integration, pedagogical methodology, aesthetic taste.*

Kirish

Jahon ta’lim tizimida inklyuziv ta’limni rivojlantirish, har bir bolaning individual imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish hamda sifatli ta’lim olish huquqini ta'minlash XXI asr pedagogikasining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Zamonaviy pedagogik konsepsiyalarda bolaning shaxs sifatida har tomonlama rivojlanishi uning intellektual salohiyati bilan bir qatorda estetik madaniyati, ijodiy tafakkuri, emotsional sezgirligi va badiiy didining shakllanishi bilan ham uzviy bog‘liq ekanligi ta’kidlanadi. Ayniqsa, maktabgacha ta’lim davrida estetik madaniyatni shakllantirish bolaning keyingi shaxsiy rivojlanishi, ma’naviy kamoloti hamda ijtimoiy moslashuvining muhim omillaridan biri hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan inklyuziv maktabgacha ta’lim sharoitida barcha bolalar, jumladan, alohida ta’lim ehtiyojiga ega tarbiyalanuvchilarning estetik madaniyatini rivojlantirish pedagogika fanining dolzarb ilmiy muammolaridan biriga aylandi.

O‘zbekiston Respublikasida inklyuziv ta’limni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri etib belgilangan. Xususan, “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun, “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonun, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining inklyuziv ta’limni rivojlantirishga oid farmon va qarorlari hamda “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi maktabgacha ta’lim tashkilotlarida barcha bolalar uchun teng imkoniyatlarni yaratish, ularning qobiliyatlarini rivojlantirish va estetik tarbiyasini ta’minlashni muhim vazifalardan biri sifatida belgilaydi. Mazkur me’yoriy hujjatlar maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tashkil etilgan rivojlantiruvchi markazlar, jumladan, san’at markazlari faoliyatini takomillashtirish orqali tarbiyalanuvchilarning estetik dunyoqarashi va ijodiy salohiyatini rivojlantirish zarurligini ko‘rsatadi.

Estetik tarbiya va san’atning shaxs rivojlanishidagi o‘rni jahon pedagogika fanida J. Dewey, M. Montessori, L.S. Vygotskiy, J. Piaget, H. Gardner, E. Eisner kabi olimlar tomonidan chuqur tadqiq etilgan. Ularning ilmiy qarashlarida san’at bolaning tafakkurini rivojlantirish, hissiy olamini boyitish, ijodiy qobiliyatini shakllantirish hamda ijtimoiy faolligini oshirishning samarali vositasi sifatida e’tirof etiladi. O‘zbek pedagogika fanida maktabgacha ta'limni rivojlantirish, estetik tarbiya, badiiy faoliyat va inklyuziv ta’lim masalalari bo‘yicha qator ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Biroq mavjud tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, inklyuziv maktabgacha ta’lim sharoitida san’at markazlari faoliyati orqali tarbiyalanuvchilarning estetik madaniyatini shakllantirish metodikasini takomillashtirish masalasi kompleks pedagogik muammo sifatida yetarli darajada tadqiq etilmagan. Ayniqsa, san’at markazlarining rivojlantiruvchi imkoniyatlari, ularni alohida ta’lim ehtiyojiga ega bolalar imkoniyatlariga moslashtirish, differensial va individual yondashuv asosida estetik madaniyatni shakllantirishning metodik mexanizmlarini ishlab chiqish bugungi pedagogika fanining dolzarb vazifalaridan biri bo‘lib qolmoqda.

San’at markazlari maktabgacha ta’lim tashkilotining rivojlantiruvchi ta’lim muhitining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Mazkur markazlarda musiqa, teatr, badiiy ijod elementlaridan foydalanish bolalarning estetik idroki, tasavvuri, ijodkorligi, emotsional sezgirligi va kommunikativ faolligini rivojlantirish imkonini beradi. Inklyuziv guruhlarda bunday faoliyatning to‘g‘ri tashkil etilishi esa nafaqat estetik madaniyatni shakllantirish, balki bolalar o‘rtasida o‘zaro hurmat, hamkorlik, bag‘rikenglik va ijtimoiy moslashuvni rivojlantirishga ham xizmat qiladi.

Asosiy qism

Zamonaviy pedagogika fanida estetik madaniyat shaxsning umumiy madaniyatining ajralmas tarkibiy qismi sifatida talqin etiladi. Estetik madaniyat insonning go‘zallikni idrok etishi, estetik qadriyatlarni anglay olishi, ularga nisbatan munosabat bildirishi hamda badiiy-ijodiy faoliyatda ishtirok etish qobiliyatini o‘zida mujassamlashtiradi. Ayniqsa, maktabgacha yosh davrida estetik madaniyatni shakllantirish bolaning hissiy olami, tafakkuri, tasavvuri, ijodiy faolligi va ijtimoiy moslashuvining rivojlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli estetik tarbiya bugungi kunda maktabgacha ta’lim tizimining asosiy pedagogik yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda.

Mazkur nazariy qarashlar inklyuziv ta’lim sharoitida yanada muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki inklyuziv ta’limning asosiy maqsadi har bir bolaning individual imkoniyatlarini hisobga olgan holda uning rivojlanishi uchun teng pedagogik sharoit yaratishdan iborat. Bu jarayonda san’at faoliyati universal pedagogik vosita sifatida namoyon bo‘lib, u nutqida, eshitishida, ko‘rishida yoki tayanch-harakat tizimida nuqsoni bo‘lgan bolalarning ham ijodiy salohiyatini yuzaga chiqarishga xizmat qiladi. Inklyuziv maktabgacha ta’lim tizimida estetik madaniyatni shakllantirishning samaradorligi ko‘p jihatdan rivojlantiruvchi ta’lim muhitining qanday tashkil etilganiga bog‘liq. Zamonaviy maktabgacha ta’lim konsepsiyasida rivojlantiruvchi markazlar bolaning mustaqil faoliyatini tashkil etishga xizmat qiluvchi pedagogik makon sifatida talqin etiladi. Mazkur markazlar ichida san’at markazi alohida o‘rin egallaydi. Chunki ushbu markazda tasviriy san’at, aplikatsiya, loy bilan ishlash, musiqa, dramatizatsiya va konstruktorlik faoliyatlari integratsiyalashgan holda tashkil etiladi.

San’at markazining pedagogik imkoniyatlari shundan iboratki, unda bolalar o‘z his-tuyg‘ularini so‘z orqali emas, balki rang, shakl, ritm, harakat va obrazlar vositasida ifodalash imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Ayniqsa, nutqida yoki eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalar uchun bunday faoliyat o‘zini namoyon etishning eng qulay shakllaridan biri hisoblanadi. Tasviriy faoliyat bolaning tasavvurini rivojlantirsa, musiqa uning emotsional holatini barqarorlashtiradi, teatr elementlari esa muloqot madaniyati va

ijtimoiy faolligini rivojlantiradi. Shu sababli san’at markazi inklyuziv ta’lim muhitining eng muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi.

Bugungi kunda rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko‘rsatmoqdaki, inklyuziv ta'limda san’at markazlari faqat estetik tarbiya vositasi emas, balki bolalarning ijtimoiy integratsiyasi, emotsional rivojlanishi va kommunikativ kompetensiyasini shakllantirishning samarali pedagogik mexanizmi sifatida ham xizmat qilmoqda. Ularda san’at faoliyatiga asoslangan integratsiyalashgan mashg‘ulotlar inklyuziv guruhlarda keng qo‘llanilmoqda. Mazkur tajribalar shuni ko‘rsatadiki, san’at faoliyati barcha bolalarni umumiy ijodiy jarayonga jalb etadi, ularning individual imkoniyatlarini namoyon etishiga sharoit yaratadi va tengdoshlari bilan ijobiy munosabatlarni shakllantiradi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida rivojlantiruvchi markazlar faoliyatini tashkil etish bolaning mustaqil bilish faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, ijodiy salohiyatini rivojlantirish hamda shaxsiy qobiliyatlarini namoyon etishning muhim pedagogik sharti hisoblanadi. Ushbu markazlar orasida san’at markazi alohida o‘rin egallaydi. Chunki mazkur markazda bolaning estetik didi, tasavvuri, hissiy dunyosi, ijodiy tafakkuri va kommunikativ faolligi bir vaqtning o‘zida rivojlanadi. Inklyuziv ta'lim sharoitida esa san’at markazlari nafaqat estetik tarbiya vositasi, balki alohida ta'lim ehtiyojiga ega bolalarni tengdoshlari bilan ijtimoiy integratsiyalashning samarali pedagogik vositasi sifatida ham namoyon bo‘ladi.

Mazkur tadqiqot doirasida estetik madaniyatni shakllantirish metodikasi quyidagi pedagogik tamoyillarga asoslanishi taklif etiladi: individuallashtirish, differensial yondashuv, faoliyatga yo‘naltirilgan ta’lim, hamkorlik pedagogikasi, multisensor yondashuv va refleksiv baholash.

Mazkur tamoyillar inklyuziv guruhlarda har bir bolaning imkoniyatidan kelib chiqib estetik faoliyatni tashkil etishga xizmat qiladi.

Takomillashtirilgan metodik model to‘rtta o‘zaro bog‘liq bosqichdan iborat, diagnostik bosqich → moslashtirish bosqichi → integrativ faoliyat bosqichi → refleksiv baholash bosqichi

Taklif etilayotgan metodik modelning samaradorligi san’at markazlarida qo‘llaniladigan metodlarning xilma-xilligiga ham bog‘liq. Inklyuziv guruhlarda quyidagi metodlardan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi: art-pedagogikasi va musiqiy terapiya elementlari, ertak terapiyasi; dramatizatsiya, loyiha metodi, ijodiy topshiriqlar, kooperativ ta'lim metodlari.

Mazkur metodlarning qo‘llanilishi bolalarda estetik didni rivojlantirish bilan bir qatorda o‘zaro hurmat, bag‘rikenglik, hamkorlik va ijtimoiy faollikni ham shakllantiradi.

Shunday qilib, taklif etilgan metodik model san’at markazlari faoliyatini inklyuziv ta’lim tamoyillari asosida takomillashtirish imkonini beradi. Modelning amaliy ahamiyati shundaki, u har bir bolaning individual imkoniyatlarini hisobga olgan holda estetik madaniyatni rivojlantirishning yaxlit pedagogik tizimini yaratishga xizmat qiladi. Mazkur yondashuv maktabgacha ta’lim tashkilotlarida estetik tarbiya sifatini oshirish, inklyuziv ta’lim samaradorligini kuchaytirish hamda pedagoglarning metodik faoliyatini takomillashtirish uchun muhim ilmiy-amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, inklyuziv maktabgacha ta’lim sharoitida san’at markazlari faoliyatini ilmiy asosda takomillashtirish estetik madaniyatni rivojlantirish bilan bir qatorda ta’lim sifati, tarbiyalanuvchilarning ijodiy faolligi hamda pedagoglarning kasbiy kompetentligini oshirishga ham xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi. Ta’lim to‘g‘risidagi Qonun. – Toshkent, 2020.
2. O‘zbekiston Respublikasi. Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risidagi Qonun. – Toshkent, 2019.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi. – Toshkent, 2022.
4. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: O‘qituvchi.
5. Mahkamov U. Shaxs tarbiyasi va ma’naviy kamolot. – Toshkent.
6. Nurmatova D. Maktabgacha pedagogika. – Toshkent: O‘qituvchi.